

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02  
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**MAXMAREJABOV DILMUROD BAXTIYAROVICH**

**SULFIDLI MINERALLARNI FLOTATSIYALASH JARAYONLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH USULLARI VA ILMIY ASOSLARINI ISHLAB  
CHIQUISH**

**02.00.19 – Kamyob, nodir va radioaktiv elementlar kimyoviy texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**  
**Content of the dissertation abstract of doctor of science (DSc)**

**Maxmarejabov Dilmurod Baxtiyarovich**

Sulfidli minerallarni flotatsiyalash jarayonlarini takomillashtirish  
usullari va ilmiy asoslarini ishlab chiqish.....3

**Махмарежабов Дилмурод Бахтиярович**

Разработка методов и научных основ совершенствования  
процессов флотации сульфидных минералов.....29

**Makhmarezhabov Dilmurod Bakhtiyarovich**

Development of Methods and Scientific Foundations for  
Improving the Flotation Processes of Sulfide Minerals.....55

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published  
works.....59

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02  
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**MAXMAREJABOV DILMUROD BAXTIYAROVICH**

**SULFIDLI MINERALLARNI FLOTATSIYALASH JARAYONLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH USULLARI VA ILMIY ASOSLARINI ISHLAB  
CHIQISH**

**02.00.19 – Kamyob, nodir va radioaktiv elementlar kimyoviy texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/T820 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ionx.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Matkarimov Soxibjon Turdaliyevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Pasmiy opponenlar:**

**Samadov Alisher Usmanovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Sharafutdinov Ulugbek Ziyatovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasulova Sitorabonu Normurodovna**  
kimyo fanlari doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti**

Dissertatsiya ishi himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning «9» aprel 2025 yil soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (99871) 262-79-90, e-mail: ionx@academy.uz).

Dissertatsiya ishi bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 64 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (+99871) 262-79-90

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «26» mart kuni tarqatildi.

(2025 yil «26» martdagi 64 - raqamli reestr bayonnomasi).



**N.X. Usanbayev**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**J.S. Shukurov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

**Sh.S. Namazov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy  
seminar raisi, t.f.d., professor, akademik

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahondagi davlatlar orasida sulfidli minerallardan qimmatbaho metallarni ajratib olish va qayta ishlash texnologiyasi bo'yicha O'zbekiston yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarishning o'sishi bilan birga boy va oson boyitiluvchi sulfidli rudalarning zaxiralari kamayishi ortidan, ishlab chiqarish sanoati uchun qiyin boyitiluvchi sulfidli rudalarni qayta ishlashga bo'lgan talab ortib bormoqda. Tarkibida kamyob, nodir va radioaktiv metallar saqlovchi sulfidli rudalarning qidirib topilgan zaxiralaridan olingan rudalarda oltin, kumush, mis, molibden va boshqa foydali komponent miqdorlarining kamligi, qimmatbaho komponent zarralarining strukturaviy notekis taqsimlanganligi, boyitish jarayonlarida ishlatiladigan asosiy reagentlarning chet davlatlardan xarid qilinishi, boyitishda ruda tarkibida turli zararli qo'shimchalarning mavjudligi olinadigan boyitma sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va foydali komponentlarning tannarxini qimmatlashishiga olib keladi. Shuning uchun, sulfidli minerallarni flotatsiyalash jarayonlarini takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dunyoda metallurgiya sanoatida mineral xomashyolardan oqilona foydalanish, tarkibida kamyob, nodir va radioaktiv metall rudalarni boyitish va kimyoviy qayta ishlashning texnologik sxemalarini takomillashtirish, yangi kamxarj texnologik va texnik yechimlarni ishlab chiqish yo'li bilan qayta ishlashning samaradorligini oshirish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada qiyin boyitiluvchi sulfidli rudalar tarkibidan kamyob, nodir va radioaktiv metallarni boyitish hamda qayta ishlash samaradorligini oshirish masalalarini hal etishda katta yutuqlarga erishilganiga qaramay, reagentlarni faollashtirish hamda mahalliy sanoat korxonalaridan olinadigan reagentlarni qo'llab, boyitish texnologiyalarini qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mavjud konlardan olingan sulfidli rudalarni an'anaviy va yangi mahalliy reagentlardan foydalanib boyitish texnologiyalarini qo'llash bo'yicha ko'plab ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. Jumladan, "Olmaliq KMK" AJ tasarrufidagi Mis boyitish fabrikasining sulfidli minerallarni flotatsiyalash jarayonlarini takomillashtirishda yangi usullarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida<sup>1</sup> «Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish» kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada, boyitilishi qiyin bo'lgan sulfidli rudalarni qayta ishlashda qo'llaniladigan flotoreagentlarning faolligini oshirish hamda flotatsiyalash jarayonlarini takomillashtirilgan usullarini qo'llanishi mumkin bo'lgan texnologiyalarni ishlab chiqish va kamyob, nodir va radioaktiv metallar mavjud bo'lgan rudalarini qayta ishlashga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «Yangi O'zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi» to'g'risidagi Farmoni, 2021-yil 24-iyundagi PQ-5159-sonli «Kon-metallurgiya sanoati va unga

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-avgustdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi" to'g'risida Farmoni.

bog‘liq sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi, 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4124-sonli «Kon-metallurgiya tarmog‘i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyasini rivojlantirishning VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.**

Foydali qazilmalarni boyitish usullaridan flotatsiyalash jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan University of California, Montana Technological University (AQSh), Central South University (Xitoy), University of Toronto (Kanada), Commonwealth Scientific and Industrial Research Organisation, Julius Kruttschnitt Mineral Research Centre (Avstraliya), Qarag‘anda davlat sanoat universiteti (Qozog‘iston), Sankt-Peterburg konchilik universiteti, Irkutsk milliy tadqiqotlar texnika universiteti, Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti MISiS (Rossiya) va boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Dunyoda sulfidli minerallarni flotatsiyalash jarayonlarini takomillashtirish usullarini yaratish hamda samarali texnologiyalarni ishlab chiqishga oid olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator quyidagi ilmiy natijalar olingan, jumladan minerallarni flotatsiyalash va qayta ishlashning samarali texnologiyalari ishlab chiqilgan (University of California (AQSh); sulfidli minerallarning kimyoviy flotoreagentlar bilan reaksiyaga kirishish qonuniyatlari aniqlangan (Montana School of Mines (AQSh), sulfidli minerallarni flotatsiyalash bo‘yicha zamonaviy texnologiyalari ishlab chiqilgan Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti MISiS (Rossiya) va (Julius Kruttschnitt Mineral Research Centre (Avstraliya); sulfidli minerallarni flotatsiyalashda elektrokimyoviy ishlov berish usullari yaratilgan (Central South University (Xitoy); minerallarni flotatsiyalash va reagentlar bilan sirt reaksiyalarni sodir bo‘lishi aniqlangan (University of Toronto (Kanada); sulfidli minerallarning elektrokimyosi va flotatsiyasiyalash metodikasi ishlab chiqilgan (Commonwealth Scientific and Industrial Research Organisation (Avstraliya).

Jahonda sulfidli minerallarni flotatsiyalash jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, jumladan: flotatsiya usulida boyitish jarayonining kimyoviy va fizik parametrlarini optimallashtirish orqali sulfidli minerallarning ajratilish samaradorligini oshirish; yangi flotatsion reagentlarni ishlab chiqish va qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish; ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali flotatsiya jarayonining samaradorligini oshirish;

---

<sup>2</sup>Dissertatsiya mavzusi ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.universityofcalifornia.edu/impact/education>,  
<https://www.mtech.edu/>, <https://en.csu.edu.cn/>, <https://future.utoronto.ca>, <https://www.csiro.au/>,  
<https://kgiu.kz/?lang=en>, <https://mggu.ru/>, <https://misis.ru/>, <https://www.istu.edu/>, <https://spmi.ru/>,  
<https://smi.uq.edu.au/jkmrc> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

flotatsiya jarayonida energiya sarfini kamaytirish va resurstejamkor usullarni qo‘llash; kimyoviy flotoreagentlar va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlash; flotatsiya jarayonlarini amaliy jihatdan takomillashtirish va sanoatga tatbiq qilish; yuqori sifatli konsentratlar olish orqali mahsulot qiymatini oshirish va bozordagi raqobatbardoshlikni ta‘minlash.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ilmiy texnik adabiyotlarda tarkibida kamyob, nodir va radioaktiv metallar bo‘lgan sulfidli rudalarni boyitish texnologiyasini yaratish va flotatsiyalash jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha A.A.Abramov, V.A.Chanturiya, V.M.Avdoxin, J.R.Roos, J.P.Celis, A.S.Sudarsono, V.E.Vigdergauz, N.G.Yagodkina, I.N.Kuznetsova, E.A.Shrader, sulfidli rudalarni flotatsiyalash jarayonlari uchun yangi iqtisodiy hamda resurstejamkor flotoreagentlarni ishlab chiqish va ularni minerallarga fizik-kimyoviy ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha J.M.Cases, A.N.Buckley, R.Wood, B.P.Singh, E.D.Kriveleva, V.A.Konev, J.Lekki, T.Chmielewski, P.Nowak, J.Leja, L.H.Little, G.W.Polling, O.S.Bogdanov, A.M.Golman, I.A.Kakovskiy, I.S.Maksimov tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ular tomonidan kon-metallurgiya sanoatida sulfidli rudalarni flotatsiyalash texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan va flotatsiyalash samaradorligini oshirishda turli reagentlar sintez qilingan.

Respublikamizda sulfidli rudalarni boyitishning resurs-tejamkorlikni ta‘minlash, boyitish va gidrometallurgik qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish asosida ularning ishonchliligi va samaradorligini oshirish muammolari yuzasidan o‘zbek olimlari A.Stepanov, A.A.Yusufxodjayev, M.M.Yakubov, S.R.Xudoyarov Q.S.Sanakulov, U.A.Ergashev, A.S.Hasanov, S.T.Matkarimov, I.K.Umarova, X.Axmedov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan va bir qator samarali natijalarga erishilgan.

Tahlillarga ko‘ra sulfidli minerallarni flotatsiyalash jarayonlarini takomillashtirish sohasida ko‘plab ilmiy natijalarga erishilishiga qaramay, hali yechimini topmagan muammolar ham ko‘p. Jumladan, sulfidli rudalarni boyitishda ishlatiladigan an‘anaviy reagent (asosan to‘plovchi xususiyatli) o‘rnini bosuvchi mahalliy reagentlar bilan almashtirish, faollashtirishning turdosh usullari hamda boyitish va qayta ishlash usullarining optimal texnologiyalarini takomillashtirish imkoniyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusini dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining AL-592102410 – “Fazalararo mikro-/nano pufakli guruhlar asosida minerallarni flotatsiyalashda konditsiyalashning samarali texnologiyasi va uskunalarni tadqiq etish” (2022-2024 yy.) mavzusidagi O‘zbekiston-Xitoy qo‘shma amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** sulfidli minerallarni flotatsiyalash jarayonlarini takomillashtirish usullarini ishlab chiqish orqali rangli va nodir metall komponentlarni ajratib olish samaradorligini oshirishni ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

sulfidli minerallarning flotatsiyalash jarayonlarini mavjud texnologiyalari va xossalari o‘id ma‘lumotlarni analitik tahlil qilish;

sulfidli rudalarning xususiyatlari va moddiy tarkibini o'rganish hamda flotatsiyalash jarayonlarini tadqiq qilish;

sulfidli rudalarni flotatsiya usulida boyitishda ularning mineralogik xossalari, fraksion va granulometrik tarkiblarini o'rganish;

sulfidli rudalarning texnologik tasnifining tahlili negizida sulfidli minerallarning boyitiluvchanligini tadqiq qilish;

sulfidli minerallarning flokulyantlarini aniqlashda kaliyning butil ksantogenati va suvda eriydigan polimerlar aralashmasidan foydalanib texnologik rejimlarini tanlash;

ksantogenatlar ishtirokida sulfat kislotasi eritmalaridan foydalanib ionli flotatsiya usulida kamyob va nodir metallarni ajratib olishning texnologik rejimlarini ishlab chiqish;

sulfidli minerallarni boyitish usullarini qo'llab, flotatsiyalash reagentlarini faolligini oshirishning turli usullarini takomillashtirish;

tadqiqot natijalari asosida flotatsiyalash jarayonlarini takomillashtirish usullarini qo'llagan holdagi texnik-iqtisodiy samara beradigan ko'rsatkichlarni aniqlash va sulfidli minerallarni qayta ishlashning samarali texnologik sxemasini taklif etish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida "Olmaliq KMK" AJ tasarrufidagi konlarning rangli va nodir metall komponentlarni saqlovchi sulfidli rudalar, an'anaviy to'plovchi flotoreagentlar, kaliyning butil ksantogenati (BKK), sulfat kislotasi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sulfidli rudalarni flotatsiyalash jarayonlarini turli flokulyantlar bilan olib borish usullari, kaliyning butil ksantogenatini elektrokimyoviy faollashtirish jarayonlari, flotatsiya usulida boyitish jarayonlarida hosil qilinadigan havo pufakchalarining stabilligini ta'minlash imkoniyatlaridan foydalanib, rangli va nodir metall komponentlarni ajratib olish samaradorligini oshirishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan, IQ-spektroskopiya, rentgenfazaviy (RFT), atom-absorbsion spektroskopiya va skanerli electron mikroskopiya (SEM), ratsional, granulometrik, mineralogik va boshqa usullaridan olingan natijalarni matematik ishlab chiqish amallaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** qo'yidagilardan iborat:

suvda eruvchan polimer va sirtfaol moddalar aralashmasi mis, qo'rg'oshin va rux komponentlarini o'zida saqlovchi sulfidlarning samarali flokulyanti ekanligi aniqlangan;

suvli eritmalaridagi geteropolyar sirtfaol moddalar zarralari bilan tartibsiz tuzilishdagi suvda eriydigan polimerlarning bir-biri bilan kimyoviy birikmalar hosil qilmasligi aniqlangan;

an'anaviy to'plovchi flotoreagent (BKK) bilan birgalikda akril kislotasi va poliakriamidning suvda eruvchan sopolimerini sulfidli minerallarni flotatsiyalash jarayonlaridan oldin ularning flokulyanti sifatida qo'llash natijasida asosiy komponentlar texnologik ko'rsatkichlarining ortishi isbotlangan;

sulfidli rudalarni flotatsiya usulida boyitish jarayonida to'plovchi va muhit yaratuvchi flotoreagentlarni birgalikda aralashtirib qo'llash natijasida to'plovchi reagent sarfining kamaytirish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

sulfidli rudalarni flotatsiya usulida boyitish jarayonida ishlatiladigan to'plovchi flotoreagent kaliyning butil ksantogenatini elektrokimyoviy faollashtirib qo'llash usuli ishlab chiqilgan;

flotatsiya usulidagi boyitish jarayonlarida hosil qilinadigan havo pufakchalarining stabilligini saqlab qolish orqali bo'tana quyqalanishining oldini olinishi va texnologik ko'rsatkichlarning ortishi aniqlangan;

ksantogenat eritmasini elektrokimyoviy faollashtirish natijasida diksantogenid hosil qilinishining o'zgaruvchan parametrlariga bog'liq chiziqli kombinatsiya, multiplikativ, nolinear, eksponensial va differensial tenglamalar negizidagi matematik modellari ishlab chiqilgan;

sulfidli minerallarni flotatsiya usulida boyitish jarayonlarida mexanik flotatsion mashinaning yangi taklif etilgan impelleri bir xil sharoitda solishtirilganda hosil qilinadigan pufakchalarning an'anaviy ishlatilib kelinayotgan impellerdagiga nisbatan hajman 25% dan 35% gacha kichrayishi boyitish dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan;

ionli flotatsiyalashda to'plovchi flotoreagent sifatida  $\text{NaS}_2\text{CN}(\text{C}_2\text{H}_5)_2$  ni qo'llash natijasida asosiy komponentlarning boyitmaga ajralishini yaxshilanishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** qo'yidagilardan iborat:

to'plovchi va muhit yaratuvchi aralashmasidan foydalanib to'plovchi reagent sarfini optimallashtirish hisobiga flotatsiyalash darajasini oshirish usullari takomillashtirilgan;

suvli eritmalaridagi geteropolyar sirtfaol moddalar zarralari bilan tartibsiz tuzilishdagi eruvchan polimerlarning o'zaro ta'sirlashish darajasi aniqlangan;

sulfidli rudalarni flotatsiyalash jarayonlarida ishlatiladigan reagentlarni elektrokimyoviy faollashtirish usullari va kompleks qayta ishlashning samarali texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

flotatsiya usulidagi boyitish jarayonida ishlatiladigan mexanik flotomashina impeller qurilmasi o'rniga yangi turdagi impeller qurilmasi, hamda ionli flotatsiyada to'plovchi flotoreagent sifatida  $\text{NaS}_2\text{CN}(\text{C}_2\text{H}_5)_2$  ni qo'llash usuli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Zamonaviy kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlil usullari natijalari, hamda sulfidli minerallarni flotatsiyalash jarayonlarini takomillashtirish usullarini "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ tasarrufidagi Mis boyitish fabrikasida sinovdan o'tkazilganligi bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sulfidli rudalarni flotatsiyalash jarayonlarida akril kislotasi va poliakriamidning suvda eruvchan sopolimerini flokulyant sifatida qo'llanilganligi, kaliyning butil ksantogenatini elektrokimyoviy faollashtirish orqali sulfidli minerallarga nisbatan faolligini oshirilganligi, shuningdek, flotatsiya usulida boyitish jarayonlarida hosil qilinadigan havo pufakchalarining stabilligini ta'minlanganligi, bo'tana quyqalanishining oldini olingaligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sulfidli rudalarni flotatsiyalashda akril kislotasi va poliakriamidning suvda eruvchan sopolimerini flokulyant sifatida qo'llash orqali to'plovchi reagentlar flotatsion qobiliyatini oshirish, elektrokimyoviy faollashtirish qurilmasida kaliyning butil ksantogenatini elektrokimyoviy

faollashtirish, flotatsiyalash jarayonlarida hosil qilinadigan havo pufakchalarining stabilligini saqlab qolish orqali bo'tana quyqalanishining oldini olinish kabi takomillashtirilgan usullar sulfidli minerallarni flotatsiyalash jarayonlarini samaradorligini oshirilishiga xizmat qiladi

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sulfidli minerallarni flotatsiyalash jarayonlarini takomillashtirish usullari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sulfidli rudalarni flotatsiya usulida boyitish jarayonida ishlatiladigan to'plovchi flotoreagent kaliyning butil ksantogenatini elektrokimyoviy faollashtirib qo'llash usuli «Olmaliq KMK» AJning Mis boyitish fabrikasida joriy qilingan («Olmaliq KMK» AJning 2024-yil 17-sentabrdagi №SL-004500-sonli ma'lumotnomasi). Natijada olingan flotoboyitma tarkibidagi komponentlardan misni – 0,81% ga, molibdenni – 0,72% ga va oltinni – 1,11% ga ajralish ko'rsatkichlarini oshirish imkonini bergan;

flotatsiya usuli bilan boyitish jarayonida ishlatiladigan mexanik flotomashina impelleri o'rniga yangi turdagi impeller «Olmaliq KMK» AJning Mis boyitish fabrikasida joriy qilingan («Olmaliq KMK» AJning 2024-yil 17-sentabrdagi №SL-004500-sonli ma'lumotnomasi). Natijada hosil qilinadigan havo pufakchalarining stabilligini saqlab qolish darajasi an'anaviy impellerga nisbatan 20% oshirilish imkonini bergan;

sulfidli rudalarni flotatsiya usulida boyitish jarayonida ishlatiladigan to'plovchi flotoreagent kaliyning butil ksantogenatini elektrokimyoviy faollashtirib qo'llash usuli bilan birgalikda mexanik flotomashina impelleri o'rniga yangi turdagi impeller «Olmaliq KMK» AJning Mis boyitish fabrikasida joriy qilingan («Olmaliq KMK» AJning 2024-yil 17-sentabrdagi №SL-004500-sonli ma'lumotnomasi). Natijada olingan flotoboyitma tarkibidagi komponentlardan misni – 1,37% ga, molibdenni – 1,06% ga va oltinni – 2,21% ga ajralish ko'rsatkichlarini oshirish imkonini bergan;

ionli flotatsiyada to'plovchi flotoreagent sifatida  $\text{NaS}_2\text{CN}(\text{C}_2\text{H}_5)_2$  ni qo'llash usuli «Olmaliq KMK» AJ da joriy qilingan («Olmaliq KMK» AJning 2024-yil 17-sentabrdagi №SL-004500-sonli ma'lumotnomasi). Natijada olingan misni eritmadan 98,4 ÷ 99,5% gacha ajratib olishga erishilgan;

an'anaviy to'plovchi flotoreagent bilan birgalikda akril kislotasi va poliakriamidning suvda eruvchan sopolimerini flotatsiyalash jarayonlaridan oldin sulfidlarning flokulyanti sifatida qo'llash usuli «Olmaliq KMK» AJ da joriy qilingan («Olmaliq KMK» AJning 2024-yil 17-sentabrdagi №SL-004500-sonli ma'lumotnomasi). Natijada olingan flotoboyitma tarkibidagi komponentlardan misni – 0,85% ga, molibdenni – 0,7% ga va oltinni – 1,21% ga ajralish ko'rsatkichlarini oshganligi qayd etilgan.

sulfidli rudalarni flotatsiya usulida boyitish jarayonida to'plovchi va muhit sozlovchi flotoreagentlarni birgalikda aralashtirib qo'llash usuli «Olmaliq KMK» AJning Mis boyitish fabrikasida joriy qilingan («Olmaliq KMK» AJning 2024-yil 17-sentabrdagi №SL-004500-sonli ma'lumotnomasi). Natijada to'plovchi reagent sarfi 0,4÷1% gacha kamayish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqotning natijalari doirasida jami 22 ta, jumladan 16 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlar va simpoziumlarda ma'ruza qilingan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 36 ta ilmiy ishlar, shulardan 1 ta foydali modelga patent, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta, shundan, Respublika nashrlarida 5 ta va xorijiy jurnallarda 8 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 180 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va unga bo'lgan talab, tadqiqot maqsadi va vazifalari asoslangan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga qo'llanilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Sulfidli minerallarni flotatsiyalash jarayonlarini takomillashtirishdagi olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida tegishli zamonaviy adabiyotlar tahlili o'rganilgan bo'lib, sulfidli rudalarni qayta ishlash tendensiyalari, sulfidli minerallarni boyitish va qayta ishlash usullarining hozirgi holati tahlil qilingan, qo'llanilib kelinayotgan yangi texnologiyalarning chuqur tahlili amalga oshirilgan. Jahonning turli-tuman boyitish fabrikalarida sulfidli rudalarni flotatsiyalashda to'plovchi reagentlarni birgalikda qo'llash amaliyoti yakka tartibda ishlatiladigan to'plovchi reagentlarga nisbatan ruda xususiyatlarining xilma-xilligi bois, asosiy foydali komponentlarni ajratib olishning ko'paytirish imkoniyatlari mavjudligi o'rganilgan.

Sulfidli minerallarning ksantogenatlar bilan o'zaro ta'sirlanishini o'rganish borasidagi ko'pgina tadqiqotlar natijasiga qaraganda mineralning gidrofoblanishi uchun qaysi mahsulot hal qiluvchi ekanligi aniqlanmagan. Shuningdek, Respublikamizdagi boyitish fabrikalarida asosan to'plovchi reagentlar sifatida kaliyning butil ksantogenati (BKK) qo'llanishini o'rganilish natijalariga ko'ra asosan to'plovchi reagentlarni flotatsiyalash amaliyotlarida ularning ta'sirlashuvchi imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganligi aniqlangan. Shuning uchun flotatsiyalash amaliyotida to'plovchi reagentlarni birgalikda qo'llash mumkin bo'lgan reagentlarni izlash va qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilangan.

Dissertatsiyaning «**Obyektlarni va tadqiqot usullarini tanlash hamda sulfidli minerallarning xossalari va ularning moddiy tarkibini tadqiq qilish**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlaridagi sulfidli minerallarning fizik-kimyoviy xossalari, moddiy tarkibi va tadqiqot usullari o'rganilgan. Shuningdek, sulfidli minerallarni flotatsiya usulida boyitish jaronlarida asosiy to'plovchi reagent hisoblangan ksantogenat eritmasini elektrokimyoviy ishlov berishning tadqiqot usullari ishlab chiqilgan.

Ushbu bobda ishning uslubiy qismini, shu jumladan tadqiqot obyektlarining xossalari o'rganish usullari taqdim etilgan. Tadqiqot uchun laboratoriya tajribalari, tajriba-sanoat sinovlari ishlatilgan; granulometrik tahlil, elektron mikroskopiya, probirli tahlil, tahlilning kimyoviy va fazaviy usullari, rentgen fazali tahlil, fotometrik tahlillari o'tkazilgan. Kimyoviy tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval

**Ruda namunalarining kimyoviy tarkibi**

Elementlar, komponentlar	Miqdori, %		Elementlar, komponentlar	Miqdori, %	
	Yoshlik I	Qalmoqqir		Yoshlik I	Qalmoqqir
SiO <sub>2</sub>	53,77	57,92	Zn	0,024	0,031
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	16,42	13,24	Pb	0,014	0,022
MgO	5,57	5,2	Co	0,0029	0,0017
CaO	4,78	3,8	As	<0,0005	0,0015
K <sub>2</sub> O	3,32	2,41	Ba	0,045	0,05
Na <sub>2</sub> O	2,22	<0,7	Mo	0,0054	0,005
TiO <sub>2</sub>	0,41	0,38	Sr	0,049	0,0097
MnO	0,13	0,19	Ni	0,002	<0,0010
P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	<0,2	<0,1	Se, g/t	1,75	-
C <sub>um.</sub>	0,25	<0,5	Te, g/t	0,5	<0,1
CO <sub>2</sub>	0,92	<1	Ir, g/t	<0,003	<0,002
Fe <sub>um.</sub>	5,77	6,17	Os, g/t	<0,002	<0,003
Fe <sub>sulfidli</sub>	0,92	2,67	In, g/t	0,077	0,31
Fe <sub>oksidlarda</sub>	4,85	3,5	Re, g/t	0,179	0,195
S <sub>um.</sub>	1,45	3,1	Li, g/t	64,06	12,77
S <sub>sulfidli</sub>	0,7	<0,25	Au, g/t	0,52	0,69
Cu <sub>um.</sub>	0,423	0,38	Ag, g/t	1,05	2,07

1-jadvaldagi analitik ma'lumotlarga ko'ra, rudaning kimyoviy tarkibida 83,94-86,82% litofil komponentlarning mavjudligi aniqlangan. Qiymat miqdoriga ko'ra eng ko'p uchragan komponent kremniy oksidi bo'lib, uning ulushi 53,77-57,92% ni tashkil etadi. Undan tashqari alyuminiy (III) oksidining miqdori 13,24-16,42% ni, ishqoriy va ishqoriy yer metallarining umumiy miqdori 12,3-16,02% ni tashkil qilgan. Uglarod miqdori 0,25-0,5% gacha. Qimmatbaho komponentlardan Cu - 0,38-0,42%, Mo - 0,005-0,0054%, Au - 0,52-0,69 g/t va Ag - 1,05-2,07 g/t kabi ko'plab qimmatbaho metallarni ko'rish mumkin. Oltin zarralarining mikronli o'lchami va ularni pirit va arsenopirit bilan bog'langanligi oltinni alohida boyitmaga ajralishiga to'sqinlik qilishi aniqlangan.

Dissertatsiyaning «Suvda eriydigan polimerlarning ionogen sirtfaol moddalari yordamida sulfidli minerallarni flotatsion qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari va usullarini ishlab chiqish» deb nomlangan uchinchi bobida suvda eruvchan polimer va sirtfaol moddalar aralashmasi tabiiy ravishda mis, molibden, oltin, qo'rg'oshin va rux komponentlarini saqlovchi sulfidlarining samarali flokulyanti ekanligi tajribalarda o'rganilgan (1-rasm).




1– ksantogenat; 2 – ksantogenat - akril kislotasi va poliakrilamidning suvda eruvchi sopolimeri 1:1.

### 1-rasm. Ksantogenat va ksantogenat - muhit sozlovchi reagentlar aralashmasi bilan sfalerit flotatsiyasi

Sfalerit, xuddi galenit kabi, to‘plovchi va muhit sozlovchi reagentlar aralashmasida jadal ravishda flokulyatsiyalanadi. To‘plovchi va muhit sozlovchi reagentlar aralashmasidan foydalanganda flotatsiya yaxshilanadi va to‘plovchi reagent sarfi kamayadi (1-rasm).

To‘plovchi va muhit sozlovchilar aralashmasidan foydalanish orqali to‘plovchi reagent sarfini sezilarli darajada kamaytirish va flotatsiyalash darajasini oshirishiga erishilgan. Bundan tashqari suvli eritmalaridagi geteropolyar sirtfaol moddalar zarralari bilan tartibsiz tuzilishdagi suvda eriydigan polimerlarning o‘zaro ta’siri o‘rganilgan. Ushbu moddalar bir-biri bilan kimyoviy birikmalar hosil qilmasligi aniqlangan.

Ba’zi suvda eruvchan polimerlarning (qo‘shimchalar bilan geteropolyar funksional guruhlar) ionogen sirtfaol moddalar erituvchi molekularining qismlarida o‘zaro ta’sir qilish mexanizmini o‘rganib chiqilib, ulardan sirtfaol modda sifatida kaliyning butil ksantogenati, qo‘shimchalar sifatida – suyuq shisha, lignosulfon kislotalarining kalsiy tuzi, pirokatexin, gvayakol, vanillin, 4-oksi-3-metoksli fenilpropanol-I, jigarrang aldegid, yangi eruvchan smola kabi SFM ustida sinov tajrida ishlari o‘tkazilgan. Sirtfaol moddalar va qo‘shimchalar eritmalaridagi konsentratsiyasi 1 dan 70 mg/ml gacha. Shunda, kaliyning butil ksantogenati va suyuq shisha qo‘shimchasining yutilish spektrlarini 2-rasmda quyidagicha ifodalanganligini ko‘rish mumkin. BKK va suyuq shisha qo‘shimchasining yutilish energiyasi turli konsentratsiyalarda, pHga, haroratga bog‘liqligi tahlil qilingan (2-rasmlar). Ushbu diagrammalarni yaratishda Matplotlib Chart dasturidan foydalanilgan.



**2-rasm. Kaliyning butil ksantogenati (1) va suyuq shisha (2) sulfidli minerallardagi yutilish energiyasining eritmalar konsentratsiyasiga, pH qiymatiga, harorat ko'rsatkichiga va vaqtga bog'lig'lik grafi**


Yutilish jarayonida yuqori konsentratsiyadagi sirtfaol modda (SFM) molekulari minerallar yuzasiga ko'proq ta'sir va energiya talab qiladi. Odatda, konsentratsiya oshishi bilan yutilish energiyasi ham oshadi, chunki ko'proq molekular yutilish jarayonida ishtirok bo'ladi. Olingan tahliliy natijalarga ko'ra, sirtfaol moddalar zarralari – suv molekulari – polimerlar zarralari kabi assotsiatsiyalar hosil bo'lishi aniqlangan.

Dissertatsiyaning «Sulfidli minerallarni flotatsiyalash jarayonlarini faolligini oshirishning ilmiy asoslari» deb nomlangan to'rtinchi bobida flotatsiya jarayonini boyitish korxonalarida keng ko'lamda ishlatishni, qimmatbaho to'plovchi flotoreagent kaliyning butil ksantogenatini faollashtirib qo'llash va flotatsiya usulida boyitish jarayonlarida hosil qilinadigan havo pufakchalarining stabilligini saqlab qolish orqali bo'tana quyqalanishining oldini olinishi va texnologik ko'rsatkichlarini oshirishning qayta ishlashdagi tadqiqot natijalari keltirilgan.



Flotoreagent eritmalarini elektrokimyoviy ishlov berish davrida o'rnatilgan katodda vodorod va anodda kislorod kabi elementlarning ajralish potentsiali qanchalik yuqori bo'lsa, flotoreagentlarning suvdagi eritmalarini elektrokimyoviy ishlashi uchun qo'llanilish mumkin bo'lgan elektr kuchi va kuchlanish diapazoni shuncha yuqori bo'ladi. Flotoreagent eritmalarini elektrokimyoviy ishlov berish jarayoniga o'tkazishdan dastlabki ishlov berish tajriba ishlarini hisobga olib, flotoreagentlarni

elektrokimyoviy ishlov berishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri reagentlar eritmasi tayyorlashdan keyingi bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblangan.

Butil va boshqa ksantogenatlarni elektrokimyoviy dimerizatsiyalash natijasida dialkil – diksantogenidlar hosil bo‘lgan, ammo jarayonni aniq ishlash tartibi ishlab chiqilmagan. Anoddagi reaksiya quyidagicha ifodalanadi (1):




anoddagi reaksiyaning borish potentsiali muhitning pH qiymatiga bog‘liq emas. Shuningdek, ilmiy izlanishlari natijalariga ko‘ra etil ksantogenatning platinali, oltinli, mis va galenitli elektrodlarda anodli oksidlanish jarayonlarida diksantogenidgacha oksidlanishi ksantogenatning adsorbsiyalangan radikallari orqali aniqlangan (2):



Ilmiy laboratoriya natijalariga ko‘ra, ksantogenit – 0,67 va 0 V oralig‘ida bir necha marta adsorbsiyalanishi hamda desorbsiyalanishi mumkin. Flotoreagent eritmalariga elektrokimyoviy ishlov berish maqsadida tajribalar o‘tkazish uchun yacheyka, magnitli aralashtirgich va elektr tokini boshqarish manbaidan iborat maxsus uskuna yaratildi (3, 4-rasmlar) va bu uskunaga ksantogenatlarni elektrokimyoviy faollashtirish uskunasi degan nom berildi.



**3-rasm. Flotoreagent eritmalarini elektrokimyoviy faollashtiruvchi uskuna**




**4-rasm. Flotoreagent eritmalarini elektrokimyoviy faollashtiruvchi uskunaning prinsipial tuzilishi: 1-qopqoq qismi; 2-cheklovchi stakan; 3-katod qismiga oʻrnatilgan ishchi elektrod; 4-filtr; 5- shisha kristallizator (yacheyka); 6-magnitli aralashtirgich.**

Flotoreagent eritmalarini elektrokimyoviy faollashtirish uskunasi 750 ml li silindr shaklidagi kristallizator shishadan iborat boʻlib, uning ichki perimetri boʻylab qalinligi 0,5-1,0 mm li zanglamaydigan poʻlat listdan tayyorlangan silindrik ishchi elektrod yotqizilgan. Kristallizator shishaning yuqori qismi maxsus qopqoq bilan yopilib, uning markazida esa pastki qismi ochiq boʻlgan cheklovchi stakan oʻrnatilgan. Bu stakanning asos qismida filtr oʻrnatilgan. Cheklovchi stakan ichida ham 0,5-1,0 mm li zanglamaydigan poʻlat listdan tayyorlangan ichki (yordamchi) elektrod oʻrnatilgan. Tayyorlangan flotoreagent eritmasi elektrokimyoviy faollashtirish uchun, uskuna maydonchasiga shunday tartibda beriladiki, kristallizator shishadagi sath cheklovchi stakan asosidan yuqoriroq boʻlishini talab etadi. Uskuna sathlardagi farq floreagent eritmalarining elektr tok kuchi va kuchlanishi taʼsirida oksidlash mahsulotlari elektr qaytarilish mahsulotlari bilan oʻzaro taʼsirlashmasligi uchun yaratildi. Elektrokimyoviy ishlov berish tadqiqotlari davomida kristallizator shishadan cheklovchi stakanga eritmaning sekin quyilishi sodir boʻladi.


Elektrokimyoviy faollashtirishda magnitli aralashtirgichning asosiy vazifasi 5% li ksantogenat eritmasini oksidlash jarayonlarining bir tekis ketishini taʼminlash va asosiy elektrod (anod) yuzasida reaksiya mahsulotlarini oʻrnashib (yopishishi) qolishidan saqlash uchun qoʻllaniladi.

Anod material sifatida platina, poʻlat 3, grafit, zanglamaydigan poʻlat va nikel ishlatilishi maqsadga muvofiq. Chidamliligi va ksantogenat chiqishi nuqtai nazaridan

anod sifatida eng samarali material platina, zanglamaydigan po‘lat va nikel ekanligi aniqlangan. Sanoatda amalga oshirish uchun anod materiali sifatida zanglamaydigan po‘lat va grafit tavsiya qilindi. Zanglamaydigan po‘latdan anodda ksantogenatning elektrooksidlanish mahsulotlarining tarkibi potensialining qiymatiga, elektr miqdori va reagentning konsentratsiyasiga bog‘liq. Anodning potentsiali 0,3 dan 0,7 V gacha ksantogenatning oksidlanish jarayoni diksantogenit hosil bo‘lishi bilan boradi. Agar elektroliz anod va katod maydonini ajratmasdan borilsa parchalanishi sodir bo‘lib, u diksantogenidning ksantogenat va monotiokarbonat hosil qilib parchalanishiga olib keladi (3).




Potensial 0,8 da 1,8 V gacha oshirilsa quyidagi birikmalar hosil bo‘lishi boshlanadi (4):



Shuningdek, ksantogenat va diksantogenidning sulfidli minerallar yuzasiga ta’sir qilish mexanizmini chuqurroq o‘rganish uchun molekularning elektroskopik potensial xaritasi katta ahamiyat kasb etadi. Molekularning elektroskopik potensial xaritasi orqali reagentlar molekularining taqsimlanishini belgilab beradi hamda ta’sirlashishning gidrofob va gidrofilligini namoyon etadi.

Ksantogenat eritmasini dastlabki elektrooksidlash faqat diksantogenid chiqishini boshqarishga emas, balki uning mayin disperslanishiga ham imkon beradi. Diksantogenidning optimal dispersligiga (3-5 mkm) anodning potentsiali 0,8 dan 1,1 V gacha erishiladi. Sanoat miqyosida olib borilgan tadqiqotlar va polimetall rudalarni flotatsiyalashda ksantogenat eritmasini elektrokimyoviy oksidlash jarayonini qo‘llash natijasida to‘plovchi flotoreagent sarfi 15-25% pasaytirilishiga va metall ajralishi 1,5 dan 3,0 % gacha oshirilishini ko‘rsatgan.

Dastlabki ksantogenatning 5% li eritmasining konsentratsiyasi va elektrodga berilayotgan tok kuchi va kuchlanish miqdorining ko‘tarilishi bilan diksantogenidning chiqishining ortishi aniqlangan. Ksantogenat eritmasining elektr oksidlanish vaqti diksantogenidning chiqishiga katta ta’sir ko‘rsatadi (5-rasm).



**5-rasm. Ksantogenatning 5% li eritmasini elektrokimyoviy oksidlanish natijasida diksantogenidning hosil bo‘lishi: a) anod tokining 0,8 mA/sm<sup>2</sup> zichligida; b) 20 minut davomida anod tokining 0,2÷1,2 mA/sm<sup>2</sup> oralig‘ida**

5-rasmdan, 5% li butil ksantogenati eritmasining tok kuchining  $0,8 \text{ mA/sm}^2$  zichligida 30 daqiqa davomida ishlov berishda diksantogenidning chiqishi 10%, 120 daqiqa ishlov berishda esa 46% ni tashkil etadi.

Shuningdek, ksantogenat eritmasini elektrokimyoviy faollashtirish natijasida diksantogenid hosil qilinishining o'zgaruvchan parametrlariga bog'liqlik chiziqli kombinatsiya, multiplikativ, nolinear, eksponensial va differensial tenglamalar negizida matematik modeli ishlab chiqilgan.

Ksantogenat eritmasining elektrokimyoviy ishlov berish jarayonida diksantogenidga o'tish miqdorining umumlashtirilgan matematik modeli turli o'zgaruvchilarni umumlashtirgan holda ishlab chiqildi. Bunda vaqt, tok zichligi, va boshqa potensial omillar inobatga olindi. Shulardan dastlab, umumiy o'zgaruvchilarni chiziqli kombinatsiya modeli (5):

$$\gamma = a \cdot \ln(t) + b \cdot \sqrt{\rho_I} + e, \quad (5)$$

bu yerda,  $\gamma$  – diksantogenidning chiqish miqdori (%),  $t$  – birlik vaqt (daqiqa),  $\rho_I$  – tok zichligi  $\text{mA/sm}^2$ ,  $a$ ,  $b$ ,  $e$  – mos keluvchi koeffitsiyentlar.

Shuningdek, ba'zi jarayonlar bir-biriga nisbatan mutanosiblik hosil qilishi mumkin, shu sababli multiplikativ tipidagi model ishlab chiqildi (6):

$$\gamma = a \cdot (\ln(t))^k \cdot (\sqrt{\rho_I})^l + e, \quad (6)$$

Ishlab chiqilgan multiplikativ tipidagi modelda  $k$  va  $l$  mos keluvchi koeffitsiyent parametrlar logarifm hamda kvadrat ildiz fuksiyasining kuchlanishini belgilab beradi.

Ksantogenat eritmasining elektrokimyoviy ishlov berish jarayonida birlik vaqt va tok zichligidagi noaniqliklar vujudga kelgan taqdirda murakkabroq matematik model ishlab chiqilishini talab etadi, shu boisdan nolinear model ishlab chiqilgan (7):

$$\gamma = a \cdot (\ln(t + t_x))^k \cdot \sqrt{(\rho_I + \rho_{I_y})^l} + e, \quad (7)$$

Ishlab chiqilgan nolinear modelning multiplikativ tipidagi modeldan farqli ravishda logarifm va kvadrat ildiziga o'zgartirishlarni qo'shish mumkin, natijada boshlang'ichdagi noaniqliklarni hisobga olinishiga erishiladi.  $t_x$  va  $\rho_{I_y}$  mos keluvchi koeffitsiyent parametrlari birlik vaqt va tok zichligi o'zgarishini moslashtiradi.

Ayrim hollardagi elektrokimyoviy ishlov berishda jarayonlarning shiddat bilan stabillashuviga moyil bo'lishi mumkin, shuning uchun eksponensial model ishlab chiqilishi talab etiladi (8):

$$\gamma = a \cdot (1 - n^{-b \cdot t}) + e \cdot (1 - n^{-d \cdot \rho_I})^k + n, \quad (8)$$

bu yerda,  $n$  va  $d$  – mos keluvchi koeffitsiyentlar.

Ishlab chiqilgan eksponensial modelning o'ziga xosligi elektrokimyoviy ishlov berish natijasida diksantogenidning chiqishi birlik vaqt va tok zichligiga eksponensial ravishda bog'liq bo'lib, boshlanishida shiddat bilan, keyinchalik jarayon sekinlashishi kuzatiladi.


Ksantogenat eritmasining elektrokimyoviy ishlov berish jarayonini amalga oshirishda jarayonning davomiyligi faqat vaqtga bog'liq bo'lgan dinamik o'zgarishlar muhim hisoblanadi, bu holat uchun differensial tenglamalar negizida matematik model ishlab chiqilgan (9):

$$\frac{d(\gamma)}{d(t)} = a \cdot \ln(t) + b \cdot \sqrt{\rho_I} - e \cdot \gamma. \quad (9)$$


Bu model orqali jarayondagi muhim bo'lgan dinamik o'zgarishlardan diksantogenidning chiqish tezligini aniqlash mumkin. Shuningdek, modellarning chegaralari minerallarning boyitish parametrlarining o'zgaruvchanligi bilan belgilanadi.

Ishlab chiqilgan matematik modellarning har biri tegishli jarayonning turli holatlarini hisobga oladi va modelni tanlash asosida olib borilayotgan jarayonning holatiga, tadqiqot natijalariga va aniq belgilangan maqsadda intixob qilinadi. Bu esa ushbu modellarning har biri belgilangan sharoitlarda diksantogenidning chiqishini aniqlash uchun zamin yaratadi.


O'tkazilgan tadqiqotlari asosida, mos keluvchi koeffitsiyentni hisoblash uchun regression tahlil qilindi, hamda tuzilgan modellar laboratoriya sharoitida olingan eksperimental ma'lumotlar bilan taqqoslandi (6,7,8,9-rasmlar).




**6-rasm. Diksantogenid hosil qilinishida chizziqli kombinatsiyalashtirilgan modelning eksperimental tahlil bilan bog'liqligi**



**7-rasm. Diksantogenid hosil qilinishida multiplikativ modelning eksperimental tahlil bilan bog'liqligi**



**8-rasm. Diksantogenid hosil qilinishida eksponensial modelning eksperimental tahlil bilan bog'liqligi**



**9-rasm. Ksantogenatning eritmasini elektrokimyoviy oksidlanish natijasida diksantogenidning hosil bo'lishida ishlab chiqilgan model hamda real eksperimental ma'lumotlar bog'liqligi**

Taqqoslash jarayonlari “Python” dasturiy ta’minotidan foydalanib amalga oshirildi.

Qiyosiy grafiklardan (6-9-rasmlar) diksantogenidni chiqishdagi qiymatining turli modellarini qo‘llaganda model va eksperimental qiymatlarning o‘zaro mosligi e’tirof etilgan. Shu bilan birgalikda modellar, ular va eksperimental qiymatlarning o‘zaro farqi, chizziqli kombinatsiya modelida – 4,32%, multiplikativ tipidagi modelda – 3,87%, nolinear modelida – 4,57% va eksponensial modelda 1,13%, ni tashkil qilgan. Bu esa ishlab chiqilgan modellardan eksponensial modelning ishonchliyligini ifodalaydi uni amaliyotga tadbiiq etilishi tavsiya etiladi.

“Yoshlik I” va “Qalmoqqir” konlaridagi rudaning moddiy tarkibini, tashkil etuvchi foydali komponent va minerallarning tarqalish qonuniyatlari va tadqiqot doirasida to‘plangan ma’lumotlar moddiy tarkibi bo‘yicha o‘xshash rudalarni avvalgi tadqiqot natijalariga asoslanib tadqiqotlar o‘tgazish rejasi shakllantirilgan.

Sulfidli minerallarni flotatsiyalash jarayonlarini takomillashtirish usullari va ilmiy asoslarini ishlab chiqish uchun flotatsiya usullari asosiy boyitish usullari sifatida qabul qilindi.


Rudani yanchishda 1:0,5:6 ga teng ruda:texnik suv: tegirmon sharlari nisbatida SHML-1 (62 ML) tipdagi laboratoriya sharli tegirmondan, rudalarni flotatsiya qilish uchun 3,0, 1,0, 0,75 va 0,5 dm<sup>3</sup> sig‘imdagi kamerali FML-1 (237-ΦЛA) markali laboratoriya flotomashinalardan, yordamchi boyitish usuli uskunalari sifatida SKO-1 markali laboratoriya konsentratsion stolidan, IQBK 100-2M markali markazdan qochirma konsentratorlardan foydalanilgan.

Olingan boyitmalarni tahlil qilishda Rigaku firmasining NEX CG markali optik spektrometrida amalga oshirilib, oltin tarkibli gravitatsiya boyitmalarining sifati texnik shart TU-Uz-65-001-94-003 bo‘yicha baholandi. Baholash xulosasiga ko‘ra boyitmadagi qimmatbaho komponent oltinning belgilangan miqdori (mis eritish zavodiga tushadigan boyitmalar uchun) 50 g/t dan yuqori bo‘lishi va shu bilan birga zararli komponentlarning belgilangan miqdori As- 0,7% , Sb- 0,3% va Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>- 10% dan ortmasligining zarurligi inobatga olingan.


Flotatsiya usulida boyitish tajribalari quyidagi metodik yo‘nalish bo‘yicha olib borildi: Cu, Mo va Au elementlariga daxldor bo‘lgan minerallarni birgalikda (kollektiv) flotatsiyasi va Au hamda As minerallarining alohida-alohida (selektiv) flotatsiyasi. Boyitish natijalarini baholash odatda olingan boyitish mahsulotlarining chiqishi va mishyakning miqdoriga, surmaning mahsulotlardagi miqdorini aniqlash uchun alohida kimyoviy tahlili, Cu, Mo va Au ning miqdorini aniqlash uchun kerakli laboratoriya tahlillari asosida olib borildi.

“Qalmoqqir” konidan olingan namunalarni 20 minut davomida 57% gacha -0,071 mm, 34% gacha +0,074 mm va taxminan qolgan 9% mahsulot +0,21 mm gacha yanchilgan ruda namunasini flotatsiya usulida boyitish jarayonlari uchun an’anaviy to‘plovchi flotoreagent sarfini tanlash maqsadida bir qator flotatsiya usuli bo‘yicha boyitish tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi.

Dastlabki ruda namunalarni flotatsiya usulida boyitish 10-rasmda ko‘rsatilgan sxema bo‘yicha bajarildi.



10-rasm. Yig'uvchi reagentlarning optimal sarfini tanlash uchun sinovlar sxemasi




11-rasm. "Qalmoqqir" konlaridan olingan namunalarni flotatsiyalashdagi BKK sarfi

Yig'uvchi reagentlarning optimal sarfini tanlash uchun, BKK ning umumiy flotatsiyalashdagi sarfi 21 g/t dan 41 g/t gacha bo'lgandagi tadqiqotlar o'tkazildi (11-rasm).

